(7). Sproat R. A Computational Theory of Tongue Twisters and Speech Errors. Speech Communication, 20(1), 1996, p. 99–116.
(8). Tursunov S. Xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy tilshunoslik. Toshkent, “Sharq”, 2020, 219-bet.

Djumayeva Sofiya Kodirovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti “O‘zbek adabiyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; sofiyakodirovna@gmail.com)

O‘RXUN-ENASOY YOZMA YODGORLIKLARIDA RAQAMLAR BILAN BOG‘LIQ QARASHLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi sanalgan O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida qo‘llanilgan raqamlar va ular bilan bog‘liq qarashlar, yodgorliklar matnidagi raqamlarning ramziy mohiyati, qadimgi turkiy xalqlar dunyoqarashi, ma’naviy va siyosiy hayotida raqamlarning tutgan o‘rni hamda mohiyatiga e’tibor qaratiladi. Yodgorliklar matnida uchraydigan raqamlarni tahlil qilishda qiyosiy-tipologik usuldan foydalanildi.*

Kalit so‘zlar: *raqam, to‘rt raqami, to‘rt jihat, bo‘luk, shad, tug‘, vujudnoma, yoshnoma.*

ВЗГЛЯДЫ, СВЯЗАННЫЕ С ЧИСЛАМИ В ПИСЬМЕННЫХ ПАМЯТНИКАХ ОРХУН-ЭНАСАЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются цифры и связанные с ними взгляды, использованные в письменных памятниках Орхун-Энасай, которые являются общими памятниками тюркских народов, символическая сущность цифр в тексте памятников, мировоззрение древних тюркских народов, роль цифр в их духовной и политической жизни, а также их сущность. При анализе цифр, встречающихся в тексте памятников, использовался сравнительно-типологический метод.*

Ключевые слова: *число, число четыре, четыре аспекта, отрезок, шад, флаг, вужуднома, ёшнома.*

VIEWS RELATED TO NUMBERS IN THE WRITTEN MONUMENTS OF ORKHUN-ENASAI

Annotation. *This article will focus on the numbers used in the written monuments of Orkhon-Enasai, which are considered a common monument of Turkic peoples, the views associated with them, the symbolic essence of the numbers in the text of monuments, the worldview, place and essence of ancient Turkic peoples* in their *spiritual and political life. The comparative-typological method was used in the analysis of the numbers found in the text of the monuments.*

Keywords: *number, number four, four aspects, boluk, shad, tug, vujudnoma, yoshnoma.*

Kirish. O‘zbek milliy madaniyatining tarixiy ildizlari juda chuqur bo‘lib, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy xazinadan bahramand bo‘lish ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishda va insonning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari orqali bizga yetib kelgan qadimgi turk xoqonligi tarixi, undagi ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy hayot va vatan uchun kurash tasvirlaridan xabardor bo‘lish mumkin. Shunisi e’tiborliki, bu yozma yodgorliklarda ham raqamlar bilan bog‘liq qarashlar va raqam mohiyatiga katta e’tibor berilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Olimlarning ta’kidlashicha, to‘rt raqamining asosiy ma’nosi uning doimiylikning anglatishidir. Ko‘pgina tadqiqotchilar, jumladan, V.V.Ivanov, V.N.Toporov, N.L. Jukovskaya, A.T.Xrolenko singari olimlar dunyo kosmik modelining gorizontal tuzilishini to‘rt raqam bilan bog‘lashadi. Tadqiqot obyekti bo‘lgan yodnomalarda bu raqam olamning to‘rt tomoni ma’nosida qo‘llanilgan. Shuningdek, yoshnoma janrining dastlabki unsurlari keltirilganligini Sh.Rahimovaning “Davlatyorbek” dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RD) dissertatsiyasi avtoreferatidagi insonning yosh xususiyatlari va hayoti bilan bog‘liq she’rlar xususidagi fikrlariga asoslanib qayd etish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida keltirilgan raqamlar, ularning mohiyatini qiyosiy va kontekstual tahlil qilishga bag‘ishlangan. Muammoni kengroq yoritish maqsadida tarixiy tahlil metodi ham qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar. Yodgorliklarda xalq yoki elat nomi bilan bog‘liq raqamlarni (“uch qarluq”, “uch bayroqli turk xalqi”, “uch iduq tatar”, “to‘qquz o‘g‘iz”, “to‘qquz tatar”, “o‘n uyg‘ur”, “to‘qquz arsan qabilasi”, “uch quriqan”, “o‘ttiz tatar”, “o‘ttiz to‘qquz o‘g‘uz”) avlodlarga ishora qiluvchi raqamlarni (“uch avlod”, “uch aka”, “uch o‘g‘lon”, “sakkiz o‘g‘il”) uchratamiz.

Ba’zi bir o‘rinlarda raqamlar ma’noni kuchaytirish, ifoda etilayotgan fikrga e’tiborni tortish maqsadida qo‘llanilganligini ham qayd etish lozim. Masalan, Irq bitigida tabulg‘alarning ko‘pligi qo‘shin uchun

yaxshi ekanligi fol qilinadi: “Bir tabulg‘a yuz bo‘ldi, Yuz tabulg‘a ming bo‘ldi, Ming tabulg‘a tuman bo‘ldi, deyishadi. Bilib qo‘ying: foydasi bor, bu – yaxshi” [1;52-b.].

Kosmosning to‘rt o‘lchovli bo‘linishi qadim zamonlardan to bugungi kunga qadar mifologik asarlarda o‘z aksini topgan, hatto bino qurilishlarida ham to‘rt raqamiga e’tibor qaratiladi. Juda qadimiy an’analarda ham bu raqam to‘rt tomonni, to‘rt burchakni yoki butun dunyoni anglatib kelgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining juda ko‘plab o‘rinlarida to‘rt raqami dunyo tomonlarini anglatish uchun qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Kul tigin bitigida “To‘rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib, to‘rt tarafdagi xalqni butunlay olganlar, butunlay tobe qilganlar” [1;24-b.], deya e’tirof etilsa, Irq bitigida “To‘rt tomondan Ezgu va dongdorlari yig‘ilib, suyunishadi va quvonishadi, deydilar. Bilib qo‘ying: bu – yaxshi”, deb fol ta’bir qilinadi [1;52-b.]. Ba’zi o‘rinlarda “to‘rt tomon” birikmasi o‘rnida “to‘rt jihat” ifodasi ham qo‘llaniladiki, bu ham aynan dunyoning to‘rt tomonini anglatish uchun ishlatiladi: “To‘rt jihatdagi xalqni butunlay el qildim, bir-biriga do‘st qildim, butunlay menga qaradi” [1;27-b.] yoki Ungin bitigida “Ota-bobomiz Yami xoqon to‘rt jihatdagi xalqni ushlab turgan, birlashtirgan, tebratib, tinchitib turgan” [1;34-b.], deyiladi. Eltarish xoqon “Otam Xoqon yetti odam bilan birga bosh ko‘tardi. Eltarish xoqon bosh ko‘tardi, deb shahardagilar tog‘ga chiqdi, tog‘dagilar shaharga tushdi, to‘planib, yetmish kishi bo‘ldilar... keyin yetti yuz kishiga aylandilar”, deydi. Ushbu matnda takrorlangan o‘n yetti, yetmish va yetti yuz raqamlari xalqning mifologik qarashlariga ishora qiladi.

Raqamlar nafaqat xalqning madaniy va maishiy hayotida, balki turkiy davlatlarning siyosiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Harbiy qo‘shinlarni ma’lum bir umumlashmasida raqamlarga tayanilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, IV–V asrlarda yuzaga kelgan jujanlarda ham harbiy, ham ma’muriy birlik bo‘luk (polk) hisoblanishi uchun uning tarkibi ming kishidan iborat bo‘lishi lozim sanalgan. Bo‘luk xon tomonidan tayinlanadigan sarkardaga bo‘ysungan. Bo‘lukda har yuz kishi hisobiga bittadan, jami o‘nta tug‘ bo‘lib, har bir tug‘ning o‘z boshlig‘i bo‘lgan [2]. Demak, jujanlarda bo‘luklar ming kishidan iborat bo‘lgan. Uyg‘ur xoqoni Moyun chur sharafiga qo‘yilgan bitiktoshda ham Moyun chur mingboshi ekanligi ta’kidlanadi. Turk xoqonligi davrida yetti yuz kishilik lashkar boshlig‘iga “shad” unvoni berilgan. Masalan, Tunyuquq bitiktoshida: “Ichkari-yu tashqarida qolgani to‘planib, yetti yuzta bo‘ldi, ikki qismi otliq, bir qismi yayov edi. Yetti yuz kishini uyushtiradigan boshlig‘i shad edi” [1;18-b.], deyilsa “Bilga xoqon” bitigida: “Men o‘n to‘qqiz yil shad bo‘lib turdim, o‘n to‘qqiz yil xoqon bo‘lib turdim” [1;35-b.], deyiladi. Moyun chur bitigida “shad” unvoni bilan birga yana bir unvon tilga olinadi: “...ikki o‘g‘limga Yabg‘u, Shad unvonini berdim” [1;37-b.]. Turk xoqonligida yetti yuz kishilik bunday jamoalar zimmasiga katta mas’uliyat yuklatilganligi, xalqning or-nomusi va erki uchun kurashga chog‘langanligini “Kul tigin” bitiktoshidagi quyidagi jumlalar isbotlaydi: “ ...Hammasi yig‘ilib, yetti yuz er bo‘libdi. Yetti yuz er bo‘lib, davlatini yo‘qotgan xalqni, cho‘riga aylangan, qulga aylangan xalqni, turk hukmronligini boy bergan xalqni ota-bobolarim qonun-qoidalari bo‘yicha boshqaribdi, tashkil qilibdi” [1;26-b.].

Turkiy xalqlar adabiyotida inson hayoti tasviriga bag‘ishlangan yoshnoma, vujudnoma, umr dostoni, tarjimayi hol singari nomlar bilan yuritiladigan asarlar yaratilgan. Turkiy xalqlar adabiyotshunosligida bunday asarlar tadqiqiga bag‘ishlangan turli izlanishlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, ozarbayjon adabiyotshunosligida inson hayotini va undagi muhim voqealarni uning yoshi bilan bog‘lab tasvir etgan asarlar vujudnoma deb yuritilib, bu janr haqidagi ilmiy-nazariy ma’lumotlar juda ko‘plab mashhur folklorshunos olimlarning xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq ilmiy asarlarida berilgan [3]. O‘zbek adabiyotshunosligida ham yoshnoma xususidagi qarashlarni biz xalq og‘zaki ijodi namunalari tadqiq etilgan ilmiy ishlarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Sh.Rahimova “Davlatyorbek” dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RD) dissertatsiyasi avtoreferatida insonning yosh xususiyatlari va hayoti bilan bog‘liq she’rlar o‘zbek folklorshunosligida janr sifatida tilga olinmaganligini akademik T.Mirzayev fikrlariga asoslanib, qayd etsa-da, “Davlatyorbek” tarixiy dostonida “yoshnoma” janrining mukammal namunasi mavjud” [4], deya yoshnomani janr sifatida e’tirof etadi. Biz ham tadqiqotchining ushbu fikrni ma’qullagan holda, yoshnomalarda T.Mirzayev ta’kidlaganlaridek, tarjimayi holga oid ma’lumotlar keltirilishini, muallif yoki asar qahramoni hayotida yuz bergan muhim voqealar yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda bayon etilishini qayd etamiz. Yoshnomalarda qahramonning bolalik, tarbiya va tahsil yillari, yigitlik davri, sevgi, oila, keksalik yillari hamda hayotidagi muhim voqealar – el-yurt ozodligi va vatan ravnaqi yo‘lida olib borgan qahramonliklari badiiy bo‘yoqlarda tasvir etiladi. Sh.Raximovaning avtoreferatida yoshnoma janrining yozma adabiyotdagi qadimgi namunasi sifatida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan olingan parcha beriladi. Bizningcha, yoshnomalarning dastlabki unsurlarini yanada qadimroqdan, to‘g‘rirog‘i, O‘rxun-Enasoy bitiklaridan izlash maqsadga muvofiqdir. Fikrimizning dalili sifatida Kul tigin bitiktoshiga yuzlanamiz: “Otam xoqon uchganda (o‘lganda) inim Kul ti-

gin **yetti yosh**da (ta'kidlar bizniki J.S.) qoldi, **o'n yosh**da Umayday onam xotun baxtiga inim Kul tigin er degan nom topdi. **O'n olti yosh**ida amakim hoqon davlatini, hokimiyatini shu xilda qo'lga kiritdi". "**Yigirma bir yosh**ida Chacha Sangunga urush qildik". "Kul tigin **yigirma olti yosh**ida Qirg'iz tomonga lashkar tortdik". "Kul tigin **yigirma yetti yashar**ligida qarluq xalq begonalashib ketgach, dushman bo'ldi". "Kul tigin shu jangda **o'ttiz yashar** edi". Ko'rinib turibdiki, Kul tigin tomonidan amalga oshirilgan ishlar, hayotida yuz bergan o'zgarishlar, uning olib borgan janglari, vatan ozodligi va yurt sarhadlarini kengaytirish uchun qilgan harakatlari qahramonning yoshi bilan bog'liq ravishda tasvir etilmoqda. Bunday misollarni bitiktoshlarning boshqa turlari, ya'ni Bilga xoqon bitigi, Begra yodnomasi, Oznocheniya qishlog'idan topilgan yodnoma, Oltinko'ldagi yodnomalarda ham uchratish mumkin. Xususan, Bilga xoqon bitigida yetti o'rinda, shuningdek, Ubayt yodnomasi ("Olti yoshimda otamdan ayrildim"), Achur qishlog'idagi yodnoma ("O'n yetti yoshida shuhrati o'ldi"), Oznachennaya qishlog'idan topilgan yozuv ("Men o'ttiz besh yoshimda qahramon bo'ldim"), Oltinko'ldagi ikkinchi yodnoma ("O'ttiz sakkiz yoshimda vafot etdim"), Begra yodnomasi ("Yoshim oltmish yetti"), Uyuq tarlaq yodnomasi ("Sizlardan oltmish yoshimda ayrildim"), Uyuq turan yodnoma ("Oltmish uch yoshimda sizlardan ayrildim")larida ham yosh bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi. Demak, bitiktoshlarda ham qahramonning hayotida yuz bergan voqealar uning yoshi bilan bog'liq holda tasvir etilmoqdaki, buni xalq og'zaki ijodi ta'sirida yozma adabiyotda yaratilgan yoshnomalarning dastlabki variantlari sifatida qabul qilish mumkin.

Xulosa va takliflar. Turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan qadimgi yozma yodgorliklar ko'hna Turon o'lkasida yashagan ota-bobolarimiz hayoti, yashash tarzi, madaniyati va tafakkuri haqida bizga ma'lumot beradi. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matni bilan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan qarashlar, yodnomalarning g'oyaviy va badiiy xususiyatlari zamirida raqam bilan bog'liq o'rinlarni, raqamlarning mohiyati yoki ramzlariga urg'u berilgan jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Yodnomalarda qo'llanilgan raqamlar xalqimiz dunyoqarashi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uzviy aloqadorligi sababli ham turkiy xalqlarning qadimgi yozma yodgorliklarida raqamlar bilan bog'liq qarashlarni maxsus o'rganishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Qadimiy hikmatlar. Toshkent, 1987.

(2). L.N.Gumilyov. Qadimgi turklar. Toshkent, 2007, 15-bet.

(3). Elmira Fikrətqizi. Vücudnamələrdə mətenlerarasi əlaqe. Monografiya. Baki, 2018, "Elm və Təhsil", 256 səh.

(4). Sh.Rahimova. "Davlatyorbek" dostonining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (RD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2020, 15-bet.

Quvvatov Rahmatullo Hikmatullayevich (Termiz davlat Pedagigika instituti mustaqil tadqiqotchisi)

FANGA OID AFORIZMLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi fanga oid aforizmlarni chog'ishtirma tahlil qilishga bag'ishlangan. Aforizmlar madaniy, ilmiy va tilshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari o'rganiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi fanga oid aforizmlar o'ziga xos tarixiy va madaniy jihatlari bilan farqlanadi. Maqola aforizmlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularning ekvivalentlik darajasini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zbek, tahlil, madaniyatshunoslik, tilshunoslik, aforizm, kontekst, til.*

ПЕРЕКРЁСТНЫЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ АФОРИЗМОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена перекрестному анализу афоризмов, связанных с наукой, на английском и узбекском языках. Афоризмы глубоко анализируются с точки зрения культурологии, науки и лингвистики, изучаются их семантические и прагматические особенности. Научные афоризмы на английском и узбекском языках отличаются своим историческим и культурным аспектом. Цель статьи определить проблемы, возникающие при переводе афоризмов и уровень их эквивалентности.*

Ключевые слова: *узбекский язык, анализ, культурология, лингвистика, афоризм, контекст, язык.*

CROSS-COURSE ANALYSIS OF SCIENTIFIC APHORISMS

Annotation. *This article is devoted to the cross-analysis of aphorisms related to science in English and Uzbek languages. Aphorisms are deeply analyzed from the point of view of cultural, scientific and linguistics, and their semantic and pragmatic features are studied. Aphorisms related to science in English*